

60412500 - Marketing (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

bakalavriat ta'lim yo'nalishi

60412500 - Marketing (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining meyoriy muddati 4 yil.

60412500 - Marketing (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi - fan, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasidagi yo'nalish bo'lib, u korxonalarda marketing faoliyatini tashkil etish, boshqarish, rejalashtirish, nazorat qilish, marketing kompleksi, bozorni segmentlash va pozitsiyalashtirish, marketing tadqiqotlari o'tkazish, iste'molchilar xulq-atvorini o'rganish, korxonalarining marketing strategiyasini ishlab chiqish, tovar, narx, sotish, siljitish siyosatini amalga oshirish, yangi tovarlarni bozorga kiritish, korxonalarni tashqi bozorlarga chiqish usullari, turli mulkchilik shaklidagi korxona va tashkilotlarda marketing faoliyatini rivojlantirish istiqbolini belgilash bilan bog'liq kasbiy sohalar majmuini qamrab oladi.

Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- tashkiliy-boshqaruv;
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish;
- axborot-tahliliy faoliyat;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- tadbirkorlik.